

FARG'ONA VODIYSI CHOYXONALARINING ME'MORIY BEZAKLARI VA O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI



Abdolvohid Nazarov

San'atshunoslik fakulteti tayanch doktoranti
Namangan davlat universiteti izlanuvchi.

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-03>

Annotatsiya: Maqolada Farg'ona vodiysida joylashgan ayrim choyxonalarning XX-asrning 70-80 yillarga oid naqqoshlik na'munalari o'rganilgan. Namanganlik usta naqqoshlar Javlon Jamolov, Madaminjon Xusainov, Ibrohim Mamadaliyevlarning ijodi misolida tahlil etilgan, me'moriy bezaklarining ayni paytdagi xolati haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Naqsh, ganch, vassa juft, islamiy, mahalliy uslub, me'moriy bezak,

Аннотация: В статье рассматриваются образцы росписи некоторых чайхан, расположенных в Ферганской долине 70-80-х годов XX века. Проанализированы работы наманганских мастеров живописи Джавлона Джамолова, Мадаминджона Хусаинова и Ибрагима Мамадалиева, а также представлена информация о современном состоянии архитектурных украшений.

Ключевые слова: узор, ганч, васса жуфта, исламский, местный, стиль, архитектурное убранство,

Abstract: The article examines the painting samples of some teahouses located in the Fergana Valley from the 70s and 80s of the 20th century. The works of Namangan master painters Javlon Jamolov, Madaminjon Khusainov, and Ibrahim Mamadaliyev were analyzed, and information was also provided about the current state of architectural decorations.

Key words: pattern, ganch, vassa juft, Islamic, local style, architectural decoration,

Farg'ona vodiysi choyxonolari tarixini o'rganish xalq ijtimoiy madaniy hayot tarzini kengroq o'rganishni taqazo yetadi. O'tmishda choyxonalarning vujudga kelishida asosiy uch omil muhim ahamiyatga ega bo'lgan: birinchi, zaminning iqlim sharoiti, ikkinchi, moddiy-maishiy ehtiyoj talabi, uchinchi, odamlarning ijtimoiy ma'naviy ehtiyoji. Mahalla choyxonalarining yuzaga kelishida xalqning ma'naviy ehtiyoji bosh omil bo'lgan. Choyxona madaniyati ijtimoiy sharoit va davrning turmush tarzi, odob-axloq mezonlari bilan mushtarak yuzaga kelgan va taraqqiy etgan[1]. Farg'ona vodiysi me'morchiligini o'rgangan olim Iskandar Azimov bu yerdagi choyxonalarning kelib chiqishini Islom diniga qadar mavjud bo'lganligini qayd etadi. Aynan Farg'ona vodiysi me'morchiligida xam choyxonalarni o'z o'rni bor. Ushbu choyxonalarni me'moriy bezaklarini o'rganishda hududning tarixi, tabiiy iqlimining ta'siri va mahalliy aholining madaniyati, urf-odatlar alohida e'tibor talab etadi. Choyxonalarning milliy ruxda shakllanishi, ularni qulay hududda joylashuvi, me'moriy uslubi va bezaklarini o'ziga hosligi bilan bog'liqdir. Farg'ona vodiysidagi choyxonalar ham aholi yashash hududlarining markaziga qurilgan. Bu esa o'sha hudud aholisining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirish va o'zaro axborot almashishga xizmat qilgan. Choyxonalar qurilishida, bezak ishlariga alohida e'tibor berilgan. Yana bir hususiyat shundaki, XX-asrning so'ngi yilliklarida qurilgan ko'plab choyxonalarda derazalar va ochiq ayvonlarga xos milliy me'morchilik uslubi hamda amaliy bezak san'ati na'munalaridan keng foydalanilgan. Bunday uslubdagi choyxonalar, erta bahordan, to kech kuzgacha xalqqa xizmat qilgan. Farg'ona vodiysi choyxonalari bezashda asosiy bezak turi sifatida yog'och o'ymakorligi va naqqoshlikdan keng foydalanilgan.

XX-asrda usta Saidmahmud Norqo'ziyev Farg'ona vodiysidagi choyxona binolarini badiiy bezashda samarali ijod qilgan. Ustaning o'g'li Saidahmad Maxmudov ijodiy faoliyatida

Qo'qondagi «Baxt uyi», «Ustoz», «Guldasta» kabi choyxonalari bezagi alohida ajralib turadi. Shuningdek, Andijon viloyatida Asaka shahrida joylashgan «Cho'ntak» choyxonasi, Baliqchi tumani markazidagi «Baliqchi tongi» choyxonasi (1974-1975 y), Izboskan tumanidagi «Otalar choyxonasi» binosi (1980y), Qo'rg'ontepa tumani «Otalar choyxonasi» binosi (1980 y), Xonobod shahrida «Nuroniylar choyxonasi» binosi (1980y) hamda «Shahrixonsoy choyxonasi» binolari (1985 y) o'zbek milliy me'morligi an'analari asosida bunyod etilgan. Ushbu choyxonalar ikki qavatdan iborat bo'lib, shiftlari vassajuft va osma lampa usulida yopildi. Choyxonalarning uch tomoni ayvon asosida qurilishi yog'och o'ymakor ustalari va tajribali naqqoshlik va ganchkorlik uchun ijod maydoniga aylandi.

Farg'ona viloyati Quva tumanida joylashgan. «Zebo» choyxonasi 1974-1977 yillarda bunyod etilgan hamda milliy me'morchilik an'analari asosida qurilganligi va bezaklari bilan diqqatga sazovordir. Usta naqqosh Javlon Jamolov boshchiligidagi naqqoshlar guruhi «Zebo» choyxonasida katta xajmdagi ganch va naqsh ishlarini bajardi. Usta naqqosh J. Jamolov P. Benkov nomli badiiy bilim yurtini 1970-yil o'qishni tamomlagan. Ustozi Jalil Hakimovdan naqqoshlikning nozik sirlarini o'rgangan, «Qo'qon badiiy ishlab chiqarish korxonasi»da naqqoshlar guruxiga boshchilik qilgan. Uning ijodiy ishlarida choyxona binolarini naqsh va ganch bilan bezash alohida o'rin tutadi. Choyxona ikkinchi qavatidagi ayvoniga o'n sakkizta ustunlar gipsdan quyib ishlangan. Ustunlarning ko'zagida madohil naqshida Quva bog'larining dunyoga mashhur anorlarini islmiy naqshlar bilan uyg'unlashtirilgan ganch o'makorlik bezaklarida aniq ko'rishimiz mumkin (1-rasm). Muqarnasli gips ustunlar choyxonani yanada salobatli ko'rinishini taminlagan.


Ma'lumki, naqqoshlar tabiat manzaralari va o'simliklarni o'z ijodlarida aks ettirar ekanlar, ulardan aynan nusxa ko'chirmaydi. Balki har bir gul, barg, guncha va bandlarni chizishda kompazitsiyaning g'o'zal tomonlarini axtaradilar [2].



1-rasm. Ayvon ustunlari. (gips)

Choyxona interyeri devorlarida «oyna pardoz» usulida o'n ikkita namoyon, shiftlariga esa zaminsiz o'yma, muqarnas, sharafalar mohirona o'yilgan. Choyxona interyeri shifti beshta xovuzak va yarim xovuzaklardan iborat. Shiftdagi markaziy xovuzak murakkab kostruksiya tuzulishga ega. Usta bolordagi va shift naqshlarini uyg'unlashtira olgan. Shiftdagi naqsh kompozitsiyalarida ham anor shakli va gullarinidan mohirona foydalandi. To'sinlar oralig'iga

yog'och bo'laklari vassa juftlar terilgan. Vassalarni islimiy naqsh va gul bezaklar bilan bezadi, vassalar to'liqsimon yuzasi shabodada chayqalayotgan gulzor ko'rinishini eslatadi(2-rasm). "Zebo" choyxonasiga kirish eshigi devorida mahobatli bezak san'atining mozaika turida bezak ishini ko'rishimiz mumkin (3-rasm).



2-rasm. "Zebo" choyxonasi shifti naqsh bezaklarining bir qismi.

Muallif V.Kapsan mozaikada o'zbek choyxonasini tasvirlagan. Mozaikada laganlar, paxta gulli choynaklar, obdasta kabi choyxonaning asosiy elementlari mavjud. Mozaika kiramik plitalarda bajarilgan. Shuningdek choyxona binosining tashqi devorlarida mozaik panellardan bezaklar bilan boyitildi.



3-Rasm. "Zebo" choyxonasi kirish devori (Mozaika)

Namangan viloyati Chortoq shahridagi "Diydor" choyxonasi(1980-1981 y) ham milliy arxetektura an'analari asosida bunyod etilgan. Ulkan chinorlar soyasi ostida old tomoni ayvonli ushbu mo'jaz choyxonadagi me'moriy bezaklar ham alohida baddiy ahamiyatga ega. Ayvon shiftlarini Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabi asosida bajarilgan sakkizta ustunlar ko'tarib turadi. Devorning teng qismi bilan shift o'rtasiga ganchdan ishlangan ajoyib karnizlar o'rnatilgan. Shift naqsh elementlarga boyligi, kompozitsiyalarni bir birini qaytarmasligi, ranglarning o'ynoqiligi bilan ajralib turadi(4-rasm). Naqshlar fonidagi kolorit kishiga zavq beradi. Usta naqqosh J.Jamolov boshchiligidagi naqqoshlar o'zlarining noyob istedodlarini yana bir bor "Diydor" choyxonasida namoyon etadi.



4-Rasm. “Diydor” choyxonasi shifti bezagi

Shuningdek, Kosonsoy shahri markazidagi “Orom” choyxonasi ixcham va sodda arxetekturaga ega bo’lishiga qaramay, usta naqqosh 1979-yilda undagi bezaklarni o’zgacha yondashuv bilan ishladi, shift sodda uslubda, fanerali yaxlit xovuzakdan iborat, xovuzak ichiga to’rtta sakkiz qirrali girih ichiga islmiy naqshlar, siyox qalamlarni va taroqlarni nozikligi, naqshdagi bog’lamlar ravonligini yuksak did bilan bajarilgan. “Orom” choyxonasi ham ikki tomoni ayvon uslubida qurilgani bilan harakterlidur. Usta ayvonlarni shiftini ham naqsh bilan bezadi.


Javlon Jamolovning shogirdi usta naqqosh Yigitali Yo’ldashev 1978-yilda Namangan viloyati Yangiqo’rg’on tumani Iskovot qishlog’ida joylashgan “Nuroniylar choyxonasi”ni naqsh va ganch ishlarini bajardi. Bino 1860-yilda mahalliy mulkdor Muhammadrizoxo’ja mablag’i va tashabbusi bilan qurilgan bo’lib, shiftni to’rtta ustun ko’tarib turadi. Shift to’qqizta kichik xovuzaklarga bo’lingan. Choyxona shifti har bir xovuzaklarga alohida girih va islmiy naqsh kompazitsiyalaridan keng foydalandi. To’sin va qoshlarni naqsh bezaklari bilan xovuzak naqshlarida rang-baranglik (qizil, yashil, ko’k, pushti) ko’zga tashlanadi. (5-rasm). Ushbu choyxona ham milliy uslubda qurilishi va bezalishi bilan ajtalib turdi va xozirgacha o’z ahamiyatini yo’qotmagan.



5-Rasm. “Nuroniylar choyxonasi shift bezagi.

Usta naqqosh Yigitali Yo’ldashev shundan eslaydi: “Usta Javlon ganchni naqshga uyg’unlashtirishga katta e’tibor beradi. Ganchkorlikni naqshga uyg’unlashtirib ishlashni Javlon Jamolov Farg’ona vodiysida choyxonalarda birinchilardan bo’lib ishladi”.

Usta naqqosh Madaminjon Xusainov shogirdlari bilan birgalikda o’zlarining me’moriy bezak san’ati bilan chinakkam ijodiy maxoratlarini ko’rsatdi. Temiryo’lchilar dam olish maskani choyxonasi (1980y), Uchqo’rg’on tumani Norin daryo bo’yidagi choyxona binosi (1981-1982y), Namangan shahar Z.M.Bobur bog’idagi “Besh chinor” choyxonasi (1988y), shuningdek shahar markazida Dexqon bozori xududidagi “Chorsu” choyxonasi (1989y)ni alohida e’tirof etish joiz. Namangan shahri kaftdagidek ko’rinib turadigan g’oyat g’o’zal joyda Temiryo’lchilar dam olish maskani joylashgan. Birgina bog’ ichida mexmonxona, milliy taomlar oshxonasi, choyxona singari bir talay qulayliklar mavjud. Usta Madaminjon Xusainov o’g’illari bilan choyxonani bezashda bezak san’atining an’anaviy usullaridan ham foydalangan. Devorlarga vassa juft va ajoyib naqshlar chekilgan[3].



Choyxona ayvonidagi naqshning bir qismi. 1980 y.

Naqqosh va ganchkor Ibrohim Mamadaliyev faoliyati davrida ham choyxona binolarini bezadi. Bular “Chortoq markaziy choyxonasi” (1985y)da naqsh va baryelef ishlari, Kosonsoy shahridagi “Kosonsoy choyxonasi”(1987y), Yangiqo’rg’on tumanida “G’ozyavon choyxonasi” (1988y) naqsh va ganch bezaklari qorishmasi diqqatga sazavordir.

O’zbekistondagi naqqoshlik maktablarining hech birida binolarning ichki bezaklari uchun asosiy material sifatida Farg’ona vodiysidagi kabi bunchalik ko’p miqdorda yog’ochdan foydalanilganini uchratmaymiz. Mahalliy qurilish amaliyoti, mavjud qurilish materiallaridan, aniqrog’i, yog’ochdan ishlangan keng hajmli yassi bostirmali, o’ziga hos karkasli tizimi shakllangani bilan alohida ajralib turadi[4].

Xulosa qilib aytganda XX-asrning 70-80 yillar Farg’ona vodiysida amaliy bezak san’atining naqqoshlik, ganchkorlik turlarida o’sish davri bo’ldi. Naqqosh ustalar uchun ma’muriy binolar, madaniyat saroylar, klublar, shu o’rinda choyxonalar asosiy ijod ob’yektiga aylandi. Ustalarining yog’och naqqoshligi borasida tajriba va izlanishlari yaqqol sezildi. Farg’ona vodiysida ko’plab amaliy bezak ustalari avlodi yetishib chiqdi. Namanganlik usta naqqoshlar Javlon Jamolov,

Asqarali Akbarov, Ibrohim Mamadaliyev, Madaminjon Xusayinov hamda o'g'illari Abduma'jid Xusanovlar o'zbek milliy naqqoshligi an'alarini samarali davom ettirdilar. Insonlar badiiy tavakkuri va estetikasini rivoji choyxonalardagi bezak turlarida ko'rinadi. XX-asrning ikkinchi yarmidagi Farg'ona vodiysi choyxonalari o'rganish davomida hozirda ularni ko'p qismi o'z ahamiyatini yo'qotgan, saqlab qolingan noyob me'moriy bezak turlarini o'rganish va zamonaviy me'morchilik va amaliy bezak san'ati shakllarida keng foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.M.Axmedov. Vodiy choyxonalari. Moziydan sado jurnali. 26-bet. 2(62)2014:
2. GANCHKOR SAN'ATI Z.Bositxonov. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent.1978 y.
- 3.I.Azimov. "O'ZBEKISTON NAQSHU NIGORLARI".Toshkent. G'ofur Gulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti. 1987. 137 bet
- 4.Davron Mamatqulov, Xalima Rafiqova. "Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi to'plami". Silk road media. Toshkent. 173b
5. O'zbekiston Xunarmandchiligi va amaliy san'ati II. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2017.